Xorijdagi matematik vatandoshlar bilan vebinarlar boshlandi

O'zR FA Matematika instituti tashabbusi bilan Oliy ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan matematika sohasidagi kafedra mudirlari hamda professor-o’qituvchilar uchun xorijiy yetakchi oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda “onlayn” malaka oshirish darslari vebinar shaklida tashkil etilmoqda. 2020-yil 6-iyul kunigi vebinarda Kaliforniya shtati universiteti, AQSh (California State University, Fullerton – CSUF) professori Zair Ibragimov ma’ruzachi sifatida ishtirok etdi. Vebinarda Amerika qo’shma shtatlarida matematika fani va uning rivoji uchun yaratilgan sharoitlar, universitetlarda matematika ta’lim yo’nalishdagi va boshqa yo’nalishdagi talabalariga matematika fanini o’qitish metodologiyasi, rejalari va dasturlari hamda ilmiy faoliyatlarning qanday tashkil etilganligi to’g’risida ma’lumot berildi.

Navbatdagi vebinarlar:

1. 2020-yilning 7-iyul kuni soat 14:00 da MARA texnologiyasi universtiteti, Malayziya (Universiti Teknologi MARA -UiTM) professori Isomiddin Raximov;

2. 2020-yilning 8-iyul kuni soat 14:00 da Birlashgan Arab Amirliklari universiteti, BAA (The United Arab Emirates University, Abu Dhabi) professori Farrux Muhammedov.